Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 378

TIL O‘QITISH METODIKASI VA RAQAMLI PEDAGOGIKA

GENERATIV SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI ASOSIDA FILOLOGIK TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING INGLIZ TILIDA AKADEMIK YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

DURDONA Baxtiyarovna BAKIYEVA*

Guliston davlat pedagogika instituti

✉ bakiyevadurdona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekistondagi oliy ta’lim tashkilotlarining filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida akademik kompetensiyasini sun’iy intellekt vositalari asosida rivojlantirishning nazariy va metodik jihatlari yoritib beriladi. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim sharoitlari oliy ta’lim talabalaridan ilmiy fikrlarni ingliz tilida izchil, mantiqiy, akademik yozuv me’yorlariga muvofiq tarzda ifodalashni, ilmiy manbalarni tahlil qilgan holda dalillarni asoslashni va yozma matnni mustaqil tahrirdan o‘tkazishni talab etadi. Generativ sun’iy intellekt texnologiyalariningjadal rivojlanishi hamda ta’limga kirib kelishi bu borada akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirish uchun qator yangi didaktik imkoniyatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu maqolada genertiv sun’iy intellekt vositalaridan tayyor akademik matn yaratish uchun foydalanish emas, aksincha uni rejalashtirish, tayyorlangan matnni tahlil qilish, tahrirlash va refleksiya kabi bosqichlarda qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida foydalanish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

akademik yozuv, kompetensiya, filologik ta’lim yo‘nalishi, generativ sun’iy intellekt, ChatGPT, oliy ta’lim, raqamli texnologiylar, akademik halollik, refleksiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23277735

Kirish

Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanib borishi bilan oliy ta’lim tashkilotlarida xorijiy tillarni o‘qitishning mazmun va metodlarini takomillashtirishn ing yangi imkoniyatlarini vujudga keltirmoqda. Generativ sun’iy intellekt texnologiylari ayniqsa ingliz tilida yozma nutq ko‘nikmasini rivojlantirish, talabalarga individual tarzda fikr-mulohazalar berish, yozuv jarayonlarini bosqichma-bosqich tashkil etish masalalariga yangidan-yangi yondashuvlarni amaliyotga joriy qilishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlari filologik ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun akademik yozuv kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘zlarinig kelgusidagi kasbiy faoliyatida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, xorijiy til o‘qitish metodikasi va ilmiy tadqiqot faoliyatida ingliz tilidan akademik maqsadlarda foydalanishi mumkin. Shuning uchun ilmiy fikrni ingliz tilida mustaqil, mantiqiy va akademik uslubda ifodalash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish oliy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’limda asosan grammatika, lug‘at va matn tuzilishiga e’tibor qaratiladi. Biroq uchbu uchlik bilan zamonaviy akademik yozuv kompetensiyasini mazmunini to‘liq qamrab olishning imkoni yo‘q. Unda mustaqil fikralash, argument yaratish, ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, iqtiboslardan to‘g‘ri foydalan-

ish, matnni tahrirlash va yozuv jarayonini refleksiv baholash kabi muhim ko‘nikmalar ham mavjud. Generativ sun’iy intellekt vositalari yuqoridagi ko‘nikmalarni akademik yozuvni rivojlantirishning ayrim bosqichlarida qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ammo talabalar tomonidan sun’iy intellekt yaratgan matnni o‘zlashtirib olish kabi holatlar, ularning mustaqil yozuv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatish bilan bir qatorda akademik halollik prinsiplarining buzulishiga ham olib kelishi mumkin. Shunday ekan asosiy masala generativ sun’iy intellekt texnologiylaridan to‘liq tartibda foydalanish kerakmi yoki yo‘qligida emas, aksincha ulardan qanday pedagogik maqsadda va qanday shartlar asosida foydalanish masalasidir. Olszak va Krajka turli sun’iy intellekt strategiylaridan foydalnib akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning imkoniyatlarini tahlil qilgan holda sun’iy intellektni akademik yozuvning turli bosqichlarida integratsiya qilishga asosiy e’tiborni qaratgan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqgan holda, O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llashga mos metodik model taklif etiladi.

Mazkur tadqiqot orqali filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini generativ sun’iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish asosida rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat maqsadni amalga oshirish nazarda tutilgan. Bunda ko‘ra, akademik yozuv kompetensiyasining mazmun-mohiyatini aniqlash, filologik ta’lim yo‘nalishi talabalri uchun akademik yozuvning asosiy tarkibiy komponentlarini aniqlab olish, generativ sun’iy intellekt vositalarning akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash, genrativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik shartlarini ishlab chiqish, akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantiishga yo‘nalitirilgan sun’iy intellekt yordamida bajariladigan topshiriqlar tizimini taklif qilish hamda filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil yozuv hamda akademik halolligi ta’minlash mexanizlarini belgilash kabi vazifalarni amalga oshirish lozim.

Akademik yozuv- yozuvning rasmiy uslubi hisoblanib, u puxta va aniq tuzulishga ega bo‘ladi. U yozuvchidan xolislikni talab qilishi bila boshqa yozuv uslullaridan keskin farq qiladi. Bu o‘z navbatida dalillar bilan ishlash, hisssiyotlarga boy, bo‘rttirilgan uslubdan qochishni anglatadi.Filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning ingliz tilidagi akademik yozuv kompetensiyasini bir-biriga bog‘liq holdagi bir nechta komponentlarga ajratish mumkin :

Lingvistik- gramamtik qoidalar, akademik lug‘at, murakkab sintaktik struktura va yozma nutqning til me’yorlariga rioya qilish.

Kompozitsion- akademik matnni tarkibiy qismlarini to‘g‘ri shakllantirish.

Argumentativ- muayyan masalarga nuqtai nazarini bildirish, dalillar keltirish.

Manba bilan ishlash- manba tanlash, iqtibos keltirish

Refleksiv- o‘z ishini tahlil qilish, tahrirlash

Raqamli- sun’iy intellekt texnologiylaridan maqsadli foydalanish.

Yuqoridagi akademik yozuv komponentlarini ham inobatga olgan holda filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning besh bosqichli modelini taklif qilamiz:

1. Pre-writing- mavzuni tahlil qilish, muammoni aniqlash, ilk g‘oyalarni shakllantirish
2. Draftng- dastlabki matnni mustaqil yaratish.
3. AI-assissted analysis- 2-bosqichda yaratilgan matnni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish.
4. Revision- sun’iy intellekt tavsiyalari tahlili va matnni mustaqil qayta ishlash.
5. Reflection- dastlabki qoralama va yakuniy mahsulotni solishtirish.

Yuqorida keltirilgan besh bosqichli model asosida filologiya talabalarning akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi topshiriqlar tizimini qo‘llash mumkin deb hisoblaymiz :

Thesis statement workshop- berilgan topshiriq yuzasidan avval tesiz yaratilib keyin sun’iy intellekt yordamida uning aniqligi, mavzuga qay derajada mosligi va argumentativ imkoniyatlri tekshirib ko‘riladi.

Akademic paragraph analysis- talaba yozgan akademik paragrafini quyidagi ketma-ketlikka ko‘ra tahlil qiladi.

Topic sentence-supporting ideas-evidence- concluding sentence.

Paraphraseing practice- ilmiy manbadan olingan matnni mustaqil ravishda qayta yozgan talaba uni mazmuni va grammatika jihatidan sun’iy intellektda tekshiradi.

Academic vocabulary improvement-matndagi norasmiy va umumiy so‘zlarni aniqlab, akademik kontekstdagi muqobili bilan almashtiradi.

AI feedback evaluation- Talaba sun’iy intellekt tomonidan berilgan bir necha tavsiyalarni qaysi birini qabul qilishi va qaysilarini rad etishini asoslab beradi.

Jadval 1.

Sun’iy intellekt tavsiyalariga talabaning javobi

Sun’iy intellekt tavsiyasi	Qaror	Asos
Grammatika	Qabul qilaman	Grammatik qoida asosida
Leksika	Tahlil qilaman	Mazmuni o‘zgarib ketishi mumkin.
Faktlar	Tekshiraman	Ilmiy manba orqali tasdiqlash zarur.
Uslub	Tahlil qilaman	Akademik kontekstga moslik tekshiriladi.

Ushbu yondashuv orqali filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarning sun’iy intellekt savodxonligi, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi bilan birga rivojlanadi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda akademik halollikni ta’minlashni metodikaning ajralmas qismi sifatida qarash lozim. Mazkur ishda taklif etilayotgan bosqichli model va topshiriqlar tizimida quyidagi qoidalarni ham filologik ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘rgatish maqsadga muvofiq.

- sun’iy intellekt yaratgan matnni to‘liq ko‘chirib olmaslik;
- ilmiy faktlarni ishonchli manbalar orqali aniqlash;
- sun’iy intellekt yaratgan havolalarni mustaqil tekshirib olish;
- mustaqil fikrni saqlab qolish;
- sun’iy intellektdan yozma matnning qaysi qismida foydalanilganligini ochiq ko‘rsatish;
- yakuniy mahsulot uchun shaxsiy ma’suliyatni saqlash.

Ushbu qoidalar talabalarga sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishni cheklamagan holda ma’sulyat bilan, akademik jihatdan to‘g‘ri foydalanishni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda generative sun’iy intellekt texnologiylarining O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga ham kirib kelishi filologik ta’li yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida akademik yozuv kompetensiyasini rivojlantirishning yangi metodik imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Mazkur maqola orqali generative sun’iy intellekt vositalarining akademik yozuvning pre-writing, drafting, AI-assisted analysis, revision va reflection bosqichlariga integratsiya qilishga oid metodik model taklif qilingan bo‘lib, uning asosiy xususiyatlari filologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining mustaqil yozuv faoliyatini saqlab qolish, sun’iy intellekt tavsiyalaridan tanqidiy foydalanish va yakuniy akademik mahsulot uchun talabaning shaxsiy ma’suliyatini ta’minlab berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli “Oliy ta’lim tizimini

[2] 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996

[4] sonli “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

[5] Olszak,I.,Krajka,J. (2024). Developing academic students’ writing competence

[6] in the generative AI environment. Annales Unversitatis Mariae Curie-Sklodowska, Sectio N- Educatio Nova, 9,87-105.

[7] Luckin, R., Holmes, W.,Griffiths,M., Forcier, L.B. (2016). Intelligence

[8] Unleashed: An argument for AI in Education.

[9] Baker,T., Smith,L.(2019). Educ_AI-tion Rebooted? Exploring the future of

[10] artificial intelligence in schools and colleges.

[11] Userbayeva F.I. “Ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiylarini joriy

[12] etishning samaradorligini oshirish.” Raqamli iqtisodiyot ilmiy electron jurnal, 5-son-2022.

[13] Miao,F.,Holmes,W. (2023). Guidance for Generativ AI in Education and

[14] Research. UNESCO. https://doi.org/10.54675/EWZM9535..

[15] Rasul, T.,Nair,S., Kalendra,D., et al.(2024). Enhancing academic integrity

[16] among students in GenAI era:A holistic framework. International Journal of Management Education. https://doi.org/10.1016/j/ijme.2024.101041